O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li
Sana: 25-09-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

259492 - SONLI

Obyekt nomi: “Mavjud binolarni buzib 7 qavatli pentxausli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat yuqori qavatlari turar-joy” bino va inshootlarini qurilishi.	
Buyurtmachi:	MIRZAJONOV COMPANI MCHJ
Bosh loyihachi:	"BASD" XUSUSIY KORXONA
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender natijalariga ko’ra aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	086253

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Paxtaobod tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 27.09.2024-yildagi №148682719-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 03.10.2024-yildagi №1703-1703232-201257-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi “MIRZAJANOV COMPANI” MChJ tomonidan tasdiqlangan 2025 yildagi loyixalash topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “MIRZAJANOV COMPANI” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 15.01.2025-yilda tuzilgan №1-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 11.06.2025-yildagi №195325700-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “O`ZGASHKLITI” MChJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C^0 li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C^0.

Maydon seysmikligi 9-balli.

3.2. Bosh reja:

Bosh reja O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi barcha me’yoriy talablarni hisobga olgan holda, hamda muhandislik tarmoqlarini, taqdim qilingan texnik shartlar asosida bajarilgan. Bosh reja bo‘yicha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

1. Hududning umumiy maydoni – 0,29 ga
2. Qurilish maydoni – 0,08 ga
3. Yo‘llar, piyodalar yo`lakchasi va qoplamalar – 0,16 ga
4. Ko‘kalamzorlashtirish maydoni – 0,05 ga.

Paxtaobod tumani xududida ilova etilgan bosh reja asosida “Mavjud binolarni buzib 7 qavatli pentxausli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat yuqori qavatlari turar-joy” bino va inshootlari Andijon viloyati Paxtaobod tumani Sanoat MFY, Sanoat ko’chasi 78-manzil xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Paxtaobod tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 27.09.2024-yildagi №148682719-sonli ruxsatnomasiga asosan yer uchastkasi ajratildi. Ob'ekt yer uchastkasi shimol tomondan ichki ko`cha bilan, sharq tomondan ichki ko`cha bilan, janub tomondan axoli uylari bilan, g`arb tomondan ichki ko`cha bilan chegaralanadi. Bosh rejaga asosan loyihaviy ko`p qavatli turar-joy binosi, bolalar o`yingoxi, dam olish ayvoni, avtoturargoh, chiqindi to`plash joyi, metal to`siqlar joylashgan.

Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

Bino va qizil chiziqlarni joyiga bog‘lash.

Binolarni joyiga bog‘lash, loyiha ishlarining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu bosqich bosh rejada loyihalangan barcha bino va inshootlarni, hamda ularni bog‘lab turuvchi ko‘cha va yo‘lkalarni, qurilish jarayonida to‘g‘ri joylashishiga imkon beradi. Joyiga bog‘lash chizmasi M1:500 masshtabda bosh rejada ko‘rsatilgan. Binolarni 4 joyiga bog‘lash, mavjud o‘zgarmas nuqta asosida olingan va masofalar metrda ko‘rsatilgan.

Obodonlashtirish.

Loyihaviy bosh reja bo‘yicha joylashtirilgan o’quv binolari atrofini obodonlashtirish kiradi. Bosh reja bo‘yicha binolar atrofida joylashtirilgan yo‘l va yo‘lkalar, sport maydonlari, yordamchi binolar hamda avtoturargoxlarni joy-joyiga joylashtirib, atrof ko‘rinishini o’quv sharoitiga moslash kiradi.

Ko‘kalamzorlashtirish.

Loyiha hududni ko‘kalamzorlashtirish qurilishi ishlari amalga oshirilishda muhim vazifani egallaydi. Atrof-muhitga, qurilgan binolarga ko‘rk beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘kalamzorlashtirish deganda asosan past bo‘yli manzarali daraxt va butalardan iborat bo‘lib,bundan tashqari turli-tuman chiroy beradigan gullar ekilga gulzorlar kiradi.Ko‘kalamzorlar hududga ko‘rkamlik ko‘rinishi berishidan tashqari, u hududni havosini tozalashda muhim ahamiyatga ega. Asosan daraxt va gul ko‘chatlari sharoitga moslashgan, issiq iqlimga chidamli toifalaridan foydalanish talab qilinadi.

Sug‘orish tizimi.

Bosh rejada joylashtirilgan bino va yo‘lkalar bo‘ylab loyihalangan yig‘ma beton holatidagi suv qochirish ariqchalar tashkil qilish kiradi, yo‘l bo‘ylab joylashtirilgan beton ariqchalar yo‘lkalar

kesishish joyda d=0,25 metrlik polietilen quvurlardan, yo‘llar kesishish joyida d=0,325 metrlik metall quvurlardan yer ostidan o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Ariqchalar turli yo‘nalishda kesishadigan qismida suvni me’yoriy yo‘naltiriladigan moslamalar joylashtirish mo‘ljallangan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

*Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy” binosi* - etti qavatli, pentxaus va yerto`lali bo'lib, to'g'ri to'rt burchak shaklga ega, rejada o`lchamlari o'qlar bo'yicha 26,0x15,0 m bo'lgan 2 ta blok, “A” blok va “B” blokdan iborat. Bloklar deformatsion chok bilan ajratilgan holda yonma-yon joylashtirilgan. Natijada binoning umumiy uzunligi 52,5 m ni tashkil qiladi.

Ushbu turar-joy binosi quyidagi tartibda xonalarga bo'lingan:

a) yerto'lada aholiga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalariga mo'ljallangan zallar;

b) 1-qavatda ko'cha tomondagi qismida axoliga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari hamda bolalar bog'chasi, xovli tomondagi qismida 4 ta 2 xonali turar-joy xonadonlari;

d) 2 dan 7 qavatgacha bo'lgan tipik qavatlarda 8 ta 3 xonali, 2 ta 2 xonali turar-joy xonadonlari;

e) pentxaus qavatda 6 ta 2 xonali va 2 ta 3 xonali turar-joy xonadonlari;

f) texnik qavatda texnik xona va lift xizmatchilari uchun xona joylashtirilgan.

Turar-joy binosida jami 72 ta xonadon joylashgan hamda bino 2 ta blokka bo'lingan bo'lib, ikkala blokda ham 1 tadan fuqarolar uchun 500 kg lik lift loyihalangan.

Ob'yekt qurilishi rejalashtirilayotgan yer maydoni rel'yefda ya'ni qiyalikda joylashgan. Shuning uchun 1-qavatga kirish joylarini rel'yefga moslashtirish uchun “A” blok yerto'lasi balandligi 3,9 m, “B” blok yerto'lasi balandligi 2,7 m qabul qilindi. Bino 1-qavatlar balandligi esa “A” blokda 3,0 m, “B” blokda 3,6 m qabul qilindi. Binoning 2-7 ya'ni tipik qavatlar va pentxaus qavatda xonalar balandligi 3,0 m ni tashkil qiladi. Bu o'lchamlar hammasi poldan shiftgacha hisoblangan. Yerto'lalar aholiga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalariga mo'ljallangan. “A” blok 1-qavatining ko'cha tomondagi qismi axoliga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari uchun ajratildi. Xovli tomondagi qismida esa 2 ta 2 xonali turar-joy xonadonlari sifatida loyihalandi. “B” blok 1-qavatining ko'cha tomondagi qismida shu turar-joy binosida yashovchilar uchun 44 o'rinli bolalar bog'chasi ko'zda tutildi. Xovli tomondagi qismida esa bu blokda ham 2 ta 2 xonali turar-joy xonadonlari loyihalandi. Binoning 2-7 ya'ni tipik qavatlarida ikkala blokda ham har bir qavatda 5 tadan 2 va 3 xonali turar-joy xonadonlari rejalashtirilgan bo'lsa, pentxaus qavatda har bir blokda 4 tadan yozgi terassali 2 va 3 xonali xonadonlar ko'zda tutilgan. Har bir blokka 2 tadan kirish qismi loyihalangan. Ko'cha tomondan savdo va maishiy xizmat shahobchasi va bolalar bog'chasiga kiriladi. Hovli tomondan esa turar-joy xonadonlarga kiriladi. Shu kirish qismida nogironligi bo'lgan fuqarolarning xarakatlanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida panduslar va barcha axborot hamda ogohlantiruvchi belgilar inobatga olindi. Zinapoya va lift orqali barcha qavatlar bog'langan. Har bir qavatda lift va xonadonoldi yo'lak va maydonlar mavjud bo'lib shu yo'lak va maydonlar orqali xonadonlarga kirish mumkin.

Ishchi loyihada “Karkasli” konstruktiv yechim tanlangan. 1-qavatda tashqi asosiy devorlar 1,5 g'isht (380mm) qalinligida M75 pishgan g'ishtdan uriladi. 1,2 m o'lchamda chiqarilgan konsol qismlarning tashqi to'suvchi devorlari va xonadonlarni bo'luvchi devorlar esa 200 mm qalinlikdagi “Arton” yuqori sifatli gazoblokdan uriladi. Ichki parda devorlar 100 mm qalinlikdagi shunday turdagi bloklardan uriladi. Bunda bloklarning gorizontal va vertikal choklaridagi qorishma qalinligi 2±1 mm bo'lishi lozim.

Ichki pardoz ishlari – yerto`la, zina va pod`ezd yo`laklari loyiha asosida pudratchi tashkilot tomonidan pardozlanadi. Yashash honadonlarning ichki pardozlash ishlari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga asosan honadon egalari tomonidan bajariladi.
Pol – yerto`la qavatda betondan, turar-joy xonalarida esa buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga asosan honadon egalari tomonidan bajariladi.
Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan, balkon eshiklari esa alyumin profildan o`rnatiladi. Deraza, vitral va framuga - energotejamkor oynali alyumin profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Tashqi deraza tokchalari po`lat rux tunukadan q oplanadi.
Tashqi pardoz ishlari - “Bazalt” issiqlik saqlovchi plitkalari bilan qoplanib, undan keyin, ustidan “Travertin” dekorativ qorishma bilan pardozlash hisobga olingan. Me’moriy elementlar gruntovka qilinib, moyli bo`yoq bilan bo`yaladi. Sokol – italgranit bilan qoplanadi. Kirish maydonchalari pandus va zinalar - sirpanishga qarshi ishlov berilgan italgranit bilan pardozli qoplash ko`zda tutilgan.

Ishchi loyixasida, buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan “loyixalash topshirig‘iga” binoan bino “korobka” usulida loyixalangan. Bunga binoan quruvchi tashkiloti tomonidan quyma temir beton ishlari, devor konstruktsiyalarini tiklash, tom qoplamalari ishlarini bajarish, zinapoya kataklarini o'rnatish va quyish, honadonlarga kirish eshiklarini o'rnatish, podyezdga kirish eshiklarini o'rnatish, derazalarni va balkon eshik-derazalarini o'rnatish, honalar ichidagi pol qoplamalarni beton styajkalarini quyish, ichimlik suvi, oqava suv, elektr va gaz ta'minoti tizimlarini har bir honadonga olib kirish, parda devorlarini tiklash, suvoq ishlarini bajarish, tashqi pardozlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi. Qolgan ishlar ya'ni xonadonlar ichki eshiklarini o'rnatish, pol qoplamalarini qoplash, pardozlash ishlarini bajarish, sanitar texnik jixozlarni o'rnatish, elektr jixozlarini o‘rnatish xonadon egalari tomonidan bajarilishi ko‘zda tutilgan.

Binoning konstruktiv yechimlarini xisoblashda PK LIRA-SAPR dasturiy kompleksida xisoblab chiqilgan va ushbu dasturga asosa loyihalash ishlari olib borilgan.
Binoning konstruktiv yechimi 2.01.03-19 QMQ “Seysmik hududlarda qurilish” me’yori 3.1 jadvalining 1.2.2 (д) bandiga muvofiq tanlangan. Binoning tarkibiy yechimi temirbeton karkasli konstrukturaviy sxemada qilingan.
Binoning tarkibiy elementlarining qisqacha tavsifi: poydevorlar - 800 mm qalinlikdagi yaxlit monolit plitadan. 1-qavatning tashqi to'suvchi devorlari - 380 mm qalinlikda M75 pishgan g'ishtdan, yuqori qavatlarning tashqi to'suvchi devorlari - 200 mm qalinlikdagi g'ovakli bloklardan. Xonadonlarni ajratuvchi devorlar - 200 mm qalinlikdagi g'ovakli bloklardan. Pardadevorlar - 100 mm qalinlikdagi g'ovakli bloklardan. Ustun va rigellar - armokarkasli B22,5 monolit betondan bajariladi. Orayopma va tom yopmalar - ko'p bo'shliqli yig'ma temir-beton plitalardan bajariladi. Orayopmalarning monolit qismlari - armokarkasli B22,5 monolit betondan quyiladi. Zinalar – quyma temirbtondan bajariladi. Lift shaxtasi – quyma temirbetondan tiklanadi. Bino tom qismi - eritib qoplanuvchi falgoizol tom qoplamasidan qoplanadi. Otmostka - bino atrofida shag'al asosda kengligi 800 mm, qalinligi o'rtacha 70 mm bo'lgan betondan.

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari, hududni obodonlashtirish hamda nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv taminlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom issiqlik qatlami – mineral plitadan 100mm bajariladi.
- Pol izolyatsiya – penopleksdan qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- bino hududida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar re’jalashtirish;
- binoga kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirish;
- binoning 1-qavati yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo’naltiruvchi taktil qoplamalar re’jalashtirish;
- binodagi eshik qirg`og’iga kontrast lenta re’jalashtirish;
- binoda nogironligi bo`lgan shaxslar uchun hojatxona tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 03.10.2024-yildagi №1703-1703232-201257-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 21.01.2025-yildagi №30-31-pax/106-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” MChJ Paxtaobod tuman filialining 20.01.2025-yildagi №01-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Vanna, oshxona va sanuzellardan shamollatish tizimi tabiiy holatda qabul qilingan.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Binoga xo‘jalik-ichimlik, oqava suv va issiq suv ta’minoti tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi 2 konturli qozonlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyixalangan bo‘lib tashqi oqova suv tarmog‘iga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Tashqi elektr taminoti:

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 21.01.2025-yildagi №30-31-pax/106-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Loyiha 35/10 kV kuchlanishli “Shimoliy” podstansiyasidan chiquvchi “Madaniyat” tarmog’ining yaqin tayanchidan bajarish ko'zda tutilgan.

Ichki elektr taminoti:

Elektr taminotining ishonchliligi bo'yicha bino II istemolchilarga mansub. Loyihada 380/220 V kuchlanish ichki yoritish ko'zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshirilgan. Guruhli yoritish tarmog'i va rozetkalar tarmog'i PVS turdagi turli kesim yuzali o'tkazgichlarda, magistral tarmog'i VVG rusumli kabelda loyihalangan. Loyihada SHURV turdagi yoritish, VRU1-23-55 UXL4 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarini o'rnatish hisobga olingan.

Energiya tejamkorlik:

Binoning yo'laklarida xarakat datchikli sivetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan. Hamda xar bir bino tom qismiga 20 kwt quvvatli quyosh panellari o’rnatish ko’zda tutilgan. Tashqi yoritish aqlli yoritish chiroqlari orqali yoritilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 11.06.2025-yildagi №195325700-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2025-yil 7-mart kuni berilgan №01-02/03-3367-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **21 283 890 958** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

70 636 469 so'mga kamaytirilib, **21 213 254 489** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **17 720 199 847** so'm

Asbob-uskunalar: **1 220 205 947** so'm

QQS: **2 272 848 695** so'm

6.1. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

6.2. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning arxitektura va konstruksiya bo'limi, suv ta'minoti va oqava suv echimlari bo'limi, elektr, isitish va shamollatish bo'limi hamda smeta bo'limi yuzasidan berilgan e'tirozlarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.3. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi kelishishi lozim.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda SHNQ 1.03.01, SHNQ 2.01.02, QMQ 2.01.08, SHNQ 2.04.09, SHNQ 2.07.01, SHNQ 2.08.01, SHNQ 2.08.02 hamda SHNQ 2.08.04 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.7. Ekspertiza tomonidan avval taqdim etilgan 06.08.2025-yil kungi №060771-sonli yig‘ma salbiy ekspert xulosasi buyurtmachi “MIRZAJONOV COMPANI” MChJning 12.08.2025-yildagi №086253-sonli murojaati asosida bekor qilinadi.

6.8. Taqdim etilgan umumiy miqdori 12% QQS bilan 21 283 890 958 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 70 636 469 so'm qurilish materiallari narxlari hisobidan kamaytirildi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha: “Mavjud binolarni buzib 7 qavatli pentxausli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat yuqori qavatlari turar-joy” bino va inshootlarini qurilishi obyekti taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 814.66 m^2;
Umumiy maydon	- 7182.16 m^2;
Yashash maydoni	- 2679.82 m^2;
Qurilish hajmi	- 28148.51 m3
Me'yoriy mehnat sarfi	- 135988,593 odam-soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 21 213 254 489 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Baxtaxunova Muxayyo Kozimjon Qizi, Asqarov Otabek Fazlidinovich, Olimjonov Jaxongir Nabijon O‘g‘li, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li